

**CHET TILI TA'LIMIDA PRAGMATIK KOMPETENSIYANI
RIVOJLANTIRISH USULLARI HAQIDA MULOHAZALAR**

Sattorova Feruza Elmurodovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Katta o'qituvchi, PhD, doktorant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14200385>

Annotatsiya. Pragmatik qobiliyatni shakllantiradigan o'quv materiallarining darslar davomida qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada chet tilini o'qitishda talabalarda pragmatik qobiliyatni shakllantira oladigan mashqlar majmui ishlab chiqilishi va boshqa turli usullar orqali talabalar bilimlarini mustahkamlash muhimligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: pragmatik kompetensiya, kommunikativlik, CEFR, ijtimoiy kontekst, nutq aktlari.

Abstract. It is important to use educational materials that form pragmatic competence during lessons. This article talks about the importance of developing a set of exercises that can form students' pragmatic competence in foreign language teaching and strengthening students' knowledge through various other ways.

Key words: pragmatic competence, communicative competence, CEFR, social context, speech acts.

Tillarni o'qitish, chet tilini o'rganish ahamiyatini insoniyat ancha oldin anglab yetdi va chet tili ta'limi metodikasi hozirga qadar boy tajriba to'pladi. U pedagogika fanlari sistemasida mustaqil fan sifatida shakllandi va rivojlanishda davom etmoqda. Ushbu fanning mazmuni chet tili o'qitishning samarali sistemasini yaratish, chet tili darslarini tashkil qilishga oid metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishgina emas, balki chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'qitish sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalari hamda til ta'limining kommunikativ va interaktiv metodlarining ilmiy asosini yaratishdir. Ma'lumki, til va nutq hodisalari ajralmas yaxlitlikdan iborat. Shunga qaramasdan ular ayni bir tushunchalarni ifodalamaydi. Ular nutqiy faoliyatning asosini tashkil qiladi. Insonning nutqiy faoliyati zimmasidagi vazifalar juda xilma-xildir. Kommunikativlik mazkur vazifalardan biridir. Bu uning insonlar o'rtasida aloqa-munosabatni ta'minlashi bilan bog'liq. Bunda so'zlovchi nutqida o'z intensiyasini namoyon qilsa, tinglovchi o'zidagi kognitiv bilimlar orqali so'zlovchi bergan axborotni qabul qiladi. Umuman olganda, insonlar nutq orqali axborot yoki o'zaro fikr almashadilar. Bu jarayonda inson nafaqat chet tilida to'g'ri gaplarni tuzish uchun ko'makka keladigan lisoniy qobiliyat, balki kommunikativlikning bir bo'g'ini bo'lgan nutqning funksional tomonini to'ldiradigan pragmatik bilim, shuningdek, har xil imo-ishoralar, mimikalar

– tilshunoslikda paralingvistik vositalar deb nom olgan vositalardan unumli foydalanishga ehtiyoj sezadi. Chet tili ta’limining turli bosqichlarida ingliz tilining nazariy va amaliy tomonlarini o’rganishning o’ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi metodik adabiyotlar talaygina bo’lishiga qaramay, bu sohada anchagina notugalliklar, ichki ziddiyatlar mavjudligini e’tirof etishga to’g’ri keladi. Kuzatishlardan aniqlandiki, chet tilini sistemali (bunda tilga sistema sifatida qarab, uning ichki tuzilishi nazarda tutilyapti) o’rgatishga asoslangan o’qitish metodikasi talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o’rgatish, o’zagalar nutqini tinglay va anglay olish, fikrni aniq va ixcham ifodalash, so’z tanlash va uni o’rinli qo’llash, fikrni ifodalashda shakl va mazmun uyg’unligiga erishish, mantiqiy mukammallikni ta’minlash maqsadini amalga oshirishda biroz oqsoqlik qilmoqda. Buning yechimi esa chet tilida qo’llanilishi mumkin bo’lgan ilg’or pedagogik texnologiyalarni ta’limga joriy etish, amalda qo’llanilgan o’quv adabiyotlari va materiallar tahlilini amalga oshirib, kommunikativ kompetenti yuqori bo’lgan ijodiy tafakkur sohibini shakllantirishning lingvodidaktik (lisoniy-ta’limiy) asoslarini yaratishdan iboratdir.

Pragmatika – tilshunoslik fani, uning vazifalari ijtimoiy kontekstda til imkoniyatlaridan qanday foydalanish, izohlash va javob berishni tavsiflashga qaratilgan. Zero, pragmatikaning o’rganish obyekti funksiya-kontekst-shakl-ma’no kabi o’zaro aloqador tushunchalardan tashkil topgan. Chet tili ta’limida pragmatik kompetensiyaning ahamiyati nazariya, pedagogika va baholash kabi tushunchalarda o’z ifodasini topadi. Xususan, 2001 yilada Yevropa kengashi tomonidan standartlashtirilgan baholash tizimida (CEFR) da pragmatik qobiliyatni o’rgatish va baholash g’oyasi yanada mustahkam o’rin oldi. Shundan kelib chiqib, bu bo’limda pragmatik ta’lim maqsadlari va o’quv amaliyoti jarayonida muhim sanalgan mavjud imkoniyatlarni muhokama qilamiz.

Shaxslar bir-birlari bilan munosabatga kirishganda ma’lum ijtimoiy qoidalarga bo’ysunadi. Bu qoidalar so’zlashuvda fikr almashish, salomlashish, ko’z bilan aloqa qilish, imo-ishoralar va suhbat jarayonida odamlarga qanday murojaat qilish haqida ko’rsatmalar berishi mumkin. Shu kabi qoidalarni og’zaki muloqotning pragmatikasi deb ta’riflash mumkin va ular ko’pincha bilvosita o’rganiladi. Biroq hamma til o’rganuvchilar ham oddiy ijtimoiy vaziyatlarda pragmatik jihatdan to’g’ri muloqot qobiliyatini rivojlantira olmaydi. Ba’zi o’quvchilarga ijtimoiy tilni aniq o’rgatish va ularda kontekstni to’g’ri baholab, vaziyatga muvofiq til birliklaridan foydalanish qobiliyatini shakllantirish muhimdir. B.Raban “aniq tushuncha bilan yashirin

xabardorlikni mustahkamlash”ni taklif qiladi.[3] Shuni yodda tutish kerakki, madaniy farqlar pragmatik farqlarga olib kelishi mumkin.

Hozirgacha nutqiy aktlar (salomlashish, kechirim so‘rash, iltifot, iltimos qilish kabi) pragmatikada eng muhim tushunchalar sanalib, ular lingvistik shakl, til vazifalari va ijtimoiy kontekst bilan o‘zaro bog‘liqdir. Odatda, bunday nutqiy aktlarni amalga oshirish uchun ishlatiladigan sintaktik shakllar va strategiyalar, shakllarning xushmuomalali yoki bilvosita qo‘llanilishi, masalan, suhbatdoshlar orasidagi ijtimoiy masofa darajasini aniqlaydigan turli vaziyat o‘zgartiruvchilarni hisobga olgan holda o‘qitiladi. Xususan, K.Rouz ingliz tilida maqtov nutq aktini umumiy sintaktik formulalarini o‘rgatish uchun iltifot almashunivini o‘z ichiga olgan film parchalaridan foydalangan:

NP {is, looks} (really) ADJ (e.g., *That dress is really nice.*)

I (really) {like, love} NP (e.g., *I really love that dress.*)

PRO is (really) (a) (ADJ) NP (e.g., *That’s really a nice dress.*) [4]

Boshqa o‘quv qo‘llanmalarida bilvosita, noaniq tarzda berilgan so‘zlovchining niyatini tushunishga oid tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqot materiallari o‘z ichiga implikatura holatlari mavjud matnlarni oladi va talabalarga bu tarzda mulohazani qanday talqin qilishni o‘rgatadi. Masalan, P.Graysning “Hamkorlik prinsiplaridan” biri bo‘lgan o‘zaro aloqadorlik maksimumida “Did you like the film?” savoliga “I was glad when it was over” deya javob berishida implikaturani ko‘rishimiz mumkin.

Boshqa sohalar ham pragmatik bilim nimani o‘rgatishi kerak degan savolga to‘g‘ri ma‘lumot berishi o‘ta dolzarbdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pragmatika o‘rgatishi kerak bo‘lgan ro‘yxatga rasmiy va norasmiy nutq uslublari, nutq markerlari, pragmatik qoidalar, nutqni bezaydigan birliklar kabilar ham pragmatika ta‘limining muhim xususiyatlarini tashkil qiladi.[2]

Pragmatik kompetensiyani rivojlantirish til o‘rganuvchilarning ona tilida egallagan bilim va tajribalarini chet tilida ham qo‘llashi orqali amalga oshirilishi mumkinligi CEFRda aniq ifodasini topmagan. Shuningdek, bu ko‘nikmani rivojlantirishga yordam beradigan usullar sifatida quyidagilar qayd etiladi:

- nutq tuzilishi va funksional murakkabligini bosqichma bosqich oshirish orqali o‘quvchilarga yordam berish;
- murakkabligi bosqichma-bosqich ortib boradigan matnlarni o‘quvchilardan tuzish va ona tilidan chet tiliga o‘girishni talab qilish;

- kengroq funksional diapazon va aloqa almashinuvida og‘zaki nutqqa rioya qilishni talab qiladigan vazifalarni belgilash;
- amaliy mashg‘ulotlar bilan birgalikda til haqida xabardorlikni oshiradigan tahlillar, tushuntirishlar, terminlarni ham qo‘llash;
- nutq almashish shakllari, vazifalari va nutq (diskurs) tuzilishini turkum mashqlar va o‘qitishni aniq yo‘llarini qo‘llagan holda o‘rgatish.[1]

Yuqoridagi mulohazalardan ma‘lum bo‘lganidek, ingliz tili chet tili sifatida o‘qitiladigan O‘zbekiston sharoitida haqiqiy til egasi bilan muloqot qilish yoki ingliz tili qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan muhitni topish imkoniyati cheklangani tufayli pragmatikani o‘qitishda o‘qituvchi shaxsiy tashabbus ko‘rsatib, tavsiya etilgan usullarni chet tili darslari amaliyotiga tatbiq qilishi samarali natijalarni ta‘minlaydi. Bu esa ingliz tili o‘qituvchilariga talabalarning kerakli pragmatik bilim bilan qurollanishlarini o‘z zimmalariga olish masalasini olg‘a suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **CEFR** (Common European Framework of reference for language). – www.coe/lang. – P. 154
2. **Ishida K.** Indexing stance in interaction with the Japanese desu/masu and plain forms // IN. Taguchi. Pragmatic competence. – Berlin, Germany.: De Gruyter, 2009. – P.48.
3. **Raban B.** Talk to think, learn, and teach // Journal of Reading Recovery. – Spring, 2014. – P. 9.
4. **Rose K. R., Connie Ng.** Inductive and deductive teaching of compliments and compliment responses // K. Rose & G. Kasper. Pragmatics in language teaching. – Cambridge, England.: Cambridge University Press, 2001. - P. 145.